MEDIA FALSAFASI VA NAZARIYASI

Nekboyev Xurshid Xoliyorovich
Axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri p.f.f.d., (PhD)dotsent
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institut

Annotatsiya: *Ushbu maqolada media falsafasining nazariyasi, ommaviy kommunikatsiya vositalari (media) axborotni yaratish, yozib olish, undan nusxa olish, tirajlash, saqlash, tarqatish, idrok qilish, muallif va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashish vositasi hisoblanishi, mediata'lim, maktab o'quvchilari va talabalar tomonidan ommaviy axborot vositalari qonuniyatlarini o'rganishlarini yoqlaydigan pedagogika fani doirasidagi maxsus yo'nalish sifatida, o'quvchi va talabalarga media dunyosi hamda mediamadaniyat asarlariga moslashishi ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirish mediamadaniyat asarlarini tahlil qilishga doir fikr mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *medianing falsafasi va nazariyasi, ierarxik yondashuv asosida o'qitish, didaktik ta'minot, raqamli ta'lim, innovatsion faoliyat, raqamli ta'lim muhiti va boshqalar.*

ФИЛОСОФИЯ И ТЕОРИЯ МЕДИА

Некбоев Хуршид Холиёрович
Заведующий кафедрой информационных технологий к.т.н., (PhD) доцент
Каршинский инженерно-экономический институт

Аннотация: *В данной статье философия и теория средств массовой информации (СМИ), средства массовой коммуникации рассматриваются как средства создания, записи, копирования, распространения, хранения, распределения, восприятия, информационного обмена между автором и массовой аудиторией. Как специальное направление в педагогической науке, обеспечивающее изучение студентами законов средств массовой информации, адаптацию к медиамиру и произведениям медиакультуры, овладение языком средств массовой информации, представлен анализ произведений медиакультуры.*

Ключевые слова: *философия и теория медиа, обучение на основе иерархического подхода, дидактическое обеспечение, цифровое образование, инновационная деятелность, цифровая образовательная среда и др.*

PHILOSOPHY AND MEDIA THEORY

Nekboev Khurshid Kholiyorovich
Head of the Department of Information Technologies Ph.D.,
(PhD) associate professor Karshi Engineering Economics Institute

Abstract: *The philosophy and theory of mass media, mass media (media) are considered in this article, as means of creation, recording, copying, distribution, storage, distribution, perception, information exchange between the author and the mass audience, mass media. education, school. As a special direction in pedagogical science, ensuring students study the laws*

of the media, adapt to the media world and works of media culture, mastery of the language of the media, analysis of works of media culture. presented.

Keywords: *Philosophy and media theory, teaching based on a hierarchical approach, didactic support, digital education, innovative activity, digital educational environment, etc.*

KIRISH

Medianing falsafasi va nazariyasi 1960-yillarda kanadalik tadqiqotchi Marshall Maklyuenning ishlarida vujudga kelgan. Media falsafasi va nazariyasining klassik (ya'ni Maklyuenning) talqinida, asosiy tezisi mediumning simvolik (ramziy) xabarlar tizimi sifatida madaniyat uchun ishlab chiqaruvchi rolinini belgilashdan iborat. Medium (ya'ni axborotning texnik yoki moddiy tashuvchisi) medial shaklning aynan mediumning xabari translyatsiya qilinadigan ko'rinishini belgilaydi, "medial" tushunchasi esa ramziy reallikning mavjud bo'lish usulini bevosita ifodalaydigan soha sifatida tushuniladi. Maklyuen tufayli xabarni uzatish vositasining o'zi ma'noni uzatish uchun neytral vositachi bo'lib xizmat qilishini to'xtatganligi ayniqsa muhimdir. Bundan tashqari, turli xil media shakllarida (xususan, analoglilardan raqamlilargacha) taqdim etilgan mediumning rivojlanish jarayoni ramziy tizimlar va ijtimoiy amaliyotlar bilan birgalikda koevolyutsiya qilishi jarayoni sifatida tushuniladi, ular orqali ijtimoiy voqelikda subektlilik (qayta) ishlab chiqariladi va mustahkamlanadi. "Medium - bu xabarning o'zi" degan Maklyuenning klassik tezisidan kelib chiqib, media nazariyasining vositalarini ko'rib chiqar ekanmiz, u (post)strukturalizm, germenevtika va semiotika kabi ma'no-mazmunlarni ishlab chiqarishni tadqiq qilishning analitik usullarini o'z ichiga olganligini sezmaslik mumkin emas. Ular uchun umumiy tasavvur – xabarni uzatish vositasi neytral bo'lmaydi, chunki til va madaniyatning ramziy tizimlari mazkur xabar ma'nosini talqin qilish tartibida muayyan iz qoldiradi.

Maklyuen nazariyasi ilgari surilgan 1960-yillarda, ma'lumki, "subekt o'limi" haqidagi tassavurlarning turli ko'rinishlari mavjud edi. Masalan, media nazariyasi subekt o'limi (xabarni uzatish uchun xabarni kodlar va vositalar oraqali uzatish jarayonida subekt chiqarib tashlanishining oqibati sifatida) haqidagi tasavvurni Jak Derridaning dekonstruksiyasi va Jil Delyozning istaklar mashinalari bilan birga ko'rib chiqadi, shu bois postmodernizm narrativini o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan ma'noda media nazariyasi xabarlarning konstruksiya qilinadigan ma'nolari bilan korrelyatsiyada (o'zaro ta'sirda) talqin qilish muayyan moduslarining shakllanish tartibini o'rganadi, ular keyinchalik dekonstruksiya qilinishi mumkin. Shu bilan bir qatorda media nazariyasi an'anasida medianing axborot-texnik vositalar sifatida ijtimoiy amaliyot bilan korrelyatsiya bo'lishi haqidagi holat markscha falsafa ko'rsatmalari bilan solishtirish asosida ko'rib chiqilmoqda. Klassik marksizm ta'limotiga ko'ra, texnik vositalar nafaqat bizning olam bilan o'zaro ta'sir tajribamizni bevosita ifodalaydi, balki bilish jarayoni va ijtimoiy tajribaga ham ta'sir

qiladi. Media nazariyasida moddiylashgan ong g‘oyasini o’ziga xos meros qilinishi axborotning moddiy tashuvchilari va texnik vositalari olamni idrok qilish va baholashning muayyan shakllarini o’zida saqlaydi va olam obrazlarini yaratish uchun o’zlari pretsedent bo’la turib, ushbu obrazlarning tarqatuvchisi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, axborot tashuvchilar nafaqat ilmiy-texnik rivojlanish maxsulidir, balki moddiy o’lchov bilan bevosita ifodalangan ijtimoiy amaliyotni shakllantiruvchi va saqlovchi muayyan ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning natijasi hamdir. Masalan, mikroskopning evolyutsiyasi 1674 yilga kelib Antonio Van Levengukning ixtirolarida bir hujayrali organizmlarning mavjudligini empirik jihatdan asoslab berish imkoniyatiga olib kelgan, bu biologiya fanining xarakterida ham, jonli olamning shakllarini tadqiq qilishga yondashuvlarda ham aks etgan. Shunday qilib, biologik bilim o’ziga xos bilish amaliyotlarining turi sifatida moddiy vositachi-mediumlar orqali dunyoni idrok qilish va baholashning muayyan shakllari bilan bog‘liq bo’lgan; o’sha davrdagi biologiyaning ilmiy manzarasining o’zi ham instrumental rivojlanish hamda mikroolamni idrok qilish, baholash va tadqiq qilishning yangi amaliyotlari bilan o’zaro bog‘liq bo’lgan. Medianing bilish amaliyotlari va texnik medialar rivojlanishining korrelyatsiyasi (o’zaro bog‘liqligi) haqidagi nazariyasi tezisining shakllanish jarayonida tabiiy va sun’iyning dialektik o’zaro nisbati haqidagi marksistik tasavvurning aktuallashishi amalga oshadi (u foydalanilayotgan texnik medialarga bog‘liq ravishda ijtimoiy voqelikni ishlab chiqarish va subektni konstruksiyalash effekti (ta’siri) sifatida tushuniladi). Bu holda media nazariyasining yondashuvi va klassik marksizmning ko’rsatmasi bir-biridan qanday farqlanadi? Ishlab chiqarish munosabatlari tahliliga tarixiy-iqtisodiy yondashuvdan farqli o’laroq media nazariyasining o’rnatuvchi (belgilovchi) funksiyasi haqidagi metodologik ko’rsatmasi shundayki, u oldingi falsafiy fanlarni hisobga olgan holda axborot tashuvchilar ma’no-mazmunining tahliliga qaratilgan. Media nazariyasining yondashuvi korrelyatsiyasini hisobga olgan holda, ma’nolar ishlab chiqarishni va tarixiy kontekstda mazmun-ma’nolar tahlilining intrumentariyini (vositalarini) kengaytirgan holda bilish tartiblariga nisbatan yangi mazmunli qatlamlarni belgilashni eksplikatsiya qilish (izohlash) imkonini beradi. Ushbu jihatda media nazariyasi turli tarixiy davrlar ma’nolari shakllarini tashkil qiluvchi har xil belgili tizimlari uchun instrumentni (vositani) taklif qiladi. Masalan, kompyuter qurilmalari kabi maxsus raqamli medialardan foydalanish nafaqat axborot xabarlarini uzatish tezligini oshiradi, balki ushbu xabarlarni almashish amaliyotiga ham ta’sir qiladi. Aynan shuni media nazariyasini materialistik an’ana va ma’no-mazmunlarni ishlab chiqarish tartiblarini tadqiq qilishga noklassik yondashuvlar o’rtasidagi ko’prik sifatida ko’rish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda Maklyuen klassik nazariyasida media nazariyasining metodologik jihatlari yana bir meros bo’lib qolgan umumiy jihatga ega, uni

masalaning tarixiy istiqboli doirasida tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. U texnik apparatlarni inson organlarining proeksiyasi - organoproeksiya konsepsiyasi sifatida talqin qilgan nemis tadqiqotchisi Ernst Kappdan [68] boshlangan texnika falsafasining yo'nalishini davom ettiradi. Masalan, organoproeksiya haqidagi tasavvurga muvofiq, Protagor ilgari surgan "inson - hamma narsaning o'lchovi" degan antik davrdagi tushunchaga amal qilib, eng oddiy qurollar va texnik mexanizmlarning antropomorfizatsiyasi sodir bo'ladi, ya'ni ular inson organizmi va uning organlari funksiyalariga yaqinlashtiriladi. Texnika falsafasining asoschisi sifatida Kapp texnika olami - bu tashqariga olib chiqilgan inson organizmining proeksiyasi bo'lib, uning asosiy tamoyillari va qonuniyatlarini ifodalaydi, deb taxmin qilgan. Masalan, bug' dvigatelining ishlashini insonning hayot sikliga o'xshatish mumkin: oziqlanishga bo'lgan ehtiyoj, yonish mahsulotlarini ishlab chiqarish, mashina to'liq ishlamay qolguncha mexanik qismlarning eskirish ehtimoli biologik hayot jarayonlari bilan o'zaro nisbati. Telegraf tarmoqlarining tuzilishini xabarlarni uzatuvchi asab tizimiga o'xshatish mumkin, temir yo'l tarmog'i esa qon aylanish tizimining proeksiyasi deyish mumkin. Keyinchalik, organoproetsiya farazi psixoanalizda Zigmund Freyd (shaxsning ruhiy olamida inson tanasining tashqi dunyoga proetsiyasi g'oyasi bilan bir qatorda) va antropologiyada qurollarning evolyutsiyasi tishlardan boshlanadi va atom bombasi bilan tugaydi, deb Edvard Xall ta'kidlagan.

Yangi (ya'ni raqamli) medialar davrida organizmning tashqi dunyoga texnik qurilmalarda proeksiyasi haqidagi tasavvur mashina ko'rinishidagi media – kompyuterlar paydo bo'lishi bilan o'zgaradi. Ushbu proeksiya ko'rsatmasi inson organizmining neyron tizimlari bilan bir qatorda neyron tarmoqlarning antropomorfizatsiyasida, keyinchalik mashina tajribasini inson tajribasiga reduksiya qilishda ham amalga oshiriladi.

Media tarixi insoniyat tarixining og'zaki nutqning paydo bo'lishi, yozuv ixtirosi, kitob bosib chiqarish, mass-media texnologiyalarini yaratish, raqamlashtirish va tarmoq (va keyinchalik tarmoqdan keyingi) qurilmalari kabi muhim bosqichlarini qamrab oladi. Nemis nazariyotchisi Norbert Bolsning konseptsiyasiga ko'ra, bu hodisalarning bir nechtasi fundamental ahamiyatga ega: tilning ixtirosi, kitob bosib chiqarish va raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi. Raqamlashtirish uning tomonidan Gutenbergning kitob bosib chiqarish ixtirosi bilan taqqoslanadigan media-texnologik yutuqga tenglashtirilgan. Raqamli vositalar ixtiro etilishi bilan analogli davr raqamli davr va yangi medialarga yo'l berib, o'zi tarixga aylandi. Tegishli ravishda, biz Lev Manovich ketidan yangi medialarni raqamli (kod) va hisoblash moslamasi kabi ikkita o'lchovni o'z ichiga olgan hodisalar sifatida tushunamiz, ular raqamli kod va kompyuter (hisoblash qurilmasi sifatida) apparat muhiti ko'rinishida raqamli (diskret) tasavvurlar g'oyalari bilan o'zaro

munosabatda bo'ladi. Ta'kidlanayotgan "yangilik" raqamlashtirishning kundalik amaliyotga madaniyat va iqtisodiyot uchun inqilobiy kirib kelishiga tegishli emas, chunki og'zaki nutq, yozuv va kitob bosib chiqarishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq media inqiloblar tarixda sodir bo'lgan; "yangilik" shundan iboratki, raqamli kodlar bilan amallar bajarish natijasida biz interfeys yordamida vizualizatsiya qilinadigan ma'lumotlarni yaratish va ularga ishlov berishni amalga oshirishimiz mumkin. Bu davrda medianing moddiyligida analoglilikdan raqamlilikka o'tish kabi jiddiy o'zgarish yuzaga keladi, Manovichda bu jarayonni medianing konvergensiyasi deb nomlaydi. U yangi media tizimida bir qator axborot kanallarini umumiy multimediya oqimiga birlashtirish bo'lib, uning asosini raqamli kompyuter kodi tashkil qiladi. Foydalanuvchilarga axborotni translyatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi va ayni vaqtda vizual muhitda raqamli kod ma'lumotlarini olish uchun vositachi – medium raqamli kodni vizualizatsiya qilish uchun kompyuter interfeysi (axborotni chiqarish uchun apparat qurilmasini, ya'ni ekranli qurilmani hisobga olmagan holda) hisoblanadi. Sezgi organlar bilan idrok qilinishi mumkin bo'lgan (masalan, kitobni qo'lga olish) analogli medialardan farqli o'laroq, raqamli kod orqali ifodalanadigan axborotni faqat vizual interfeys orqali idroq qilish mumkin. Turli axborot kanallarini yagona multimedia oqimiga birlashtirish tartiblari tufayli raqamli shaklda taqdim etilgan media voqelik ko'rish, eshitish va his qilish kabi bir nechta registrda qayta ishlab chiqariladi va kompyuter interfeysi tufayli ayni vaqtda o'zining moddiy o'ziga xosligini yo'qotib boradi va qabul qilinadigan xabarlar shakliga ko'ra, ham axborotning reprezentatsiyasi turiga ko'ra yanada virtual bo'lib boradi. Bu raqamli medialar ham qabul qiladigan axborot shakliga ko'ra, ham axborotni reprezentatsiya qilish turi bo'yicha kompyuter interfeysi tufayli tobora virtual bo'lib borishi va ayni vaqtda o'zining moddiyligini yo'qotib borishiga sabab bo'ladi. Biz rivojlantirayotgan tushunishga muvofiq, kompyuter interfeysi – bu nol va bir raqamlar ketma-ketliklarini yagona sintetik obrazgacha birlashtiruvchi ham o'tkazgich, ham ekrandir. Bu kompyuter interfeysi medium sifatida raqamli kod asosida uzatiladigan xabarni virtuallashtirilishi va ayni vaqtda virtual jihatdan jozibali obrazli shakl berishini bildiradi. Raqamli medialar interfeys orqali gadjet ekranida foydalanuvchilar uchun optik shaklda ko'proq taqdim qilinadi. Bir tomondan, raqamli obraz mediatransformatsiyalar tarixiy ketma-ketligida idrok qilish yangi shakllarining o'tkazuvchisi sifatida tushunilishi mumkin. Boshqa tomondan, raqamli medium nafaqat foydalanuvchi vizual tajribasini belgilab beradi, balki uning vositasida zamonaviy raqamli dunyoning muayyan ma'no-mazmunlari ifodalanadi (sun'iy intellektning rolini anglash yoki ijtimoiy tarmoqlarning raqamli makondan tashqarida foydalanuvchilar xulq-atvoriga ta'siri kabi masalalarni tushunish). Media nazariyasining vizual tajribaga va obrazning roliga murojaat qilishi – mazkur fanning eng muhim jihatlaridan biri ekanligini

belgilab olamiz. U shuningdek nafaqat mazkur fanlararo tadqiqot mavzusiga, balki media nazariyotchilari etiborining predmetiga aylangan atamalar va konsepsiyalarning paydo bo'lishiga xos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Masterman L.A Rational for Media Education. In: Media Literacy in the Information Age. New Brunswik (U.S.A) and London (U.K.): Transaction Publishers, 1997: 15-68.
2. Шариков А.В. Так что же такое медиаобразование? // Медиаобразование. – Москва: 2005.С.77-83.
3. Суртаев М.Я.Социология молодежного досуга. С.-Петерб., 1998.С.222.
4. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю..Словарь по педагогике (междисциплинарный) – М.:2005.-448 с.
5. Федоров А.В.Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогических вузов. М.:2007.616 с.

THE MODERN CONCEPT OF "TOLERANCE" PHILOSOPHICAL DEFINITION

Mamasaliev Mirzoulug Mirsaidovich
Associate Professor of Karshi Engineering Economics Institute

Abstract: *Interethnic harmony and religious tolerance are among the basic principles of a democratic society. Tolerance ensures harmony between citizens, does not allow aggravation of social and national differences. In addition, protects society from the occurrence of such conflicts. Today, not only in our country, but also throughout the world, religious tolerance, interfaith mutual respect, and understanding of each other are becoming the basic principles of life. The true essence of the reforms carried out in our country is also aimed at further increasing the international prestige of the Republic of Uzbekistan. This gives our country, focused on interethnic harmony and religious tolerance, the conduct of a foreign policy in accordance with the national interests of Uzbekistan.*

The article is devoted to the analysis of modern practices of introducing tolerance in societies with liberal ideology. It is based on the opinion that the modern practice of tolerance in the West does not lead to individual changes in society, but to the formation of a new social reality. The following signs of a change in social reality are identified: a change in norms and values, a change in social consciousness, the transformation of the majority into a minority, a change in the system of social management. The article emphasizes the manipulative nature of the tolerance practices of the modern West, which, under the guise of a noble idea, forms a "new normal" in accordance with the "great reset".

Keywords: *Social control, social specialization, new norms, tolerance, social control.*